

MUTAFAKKIR VA DAVLAT ARBOBI NAVOIY

Suyunova Marjona

Jizzax Davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1 kurs talabasi

Buyuk zotlar dunyoga kelishlaridan ilgariyoq ishq dardiga muhtalo bo'lar ekanlar. Bu dunyoga kelgach, ularning amallari, xulqlari, deganlari va bitganlari ishq bilan yo'g'rilar, vafo va sadoqat bilan ziynatlanar ekan. Alisher Navoiy ham shunday buyuklardan biri. To'rt-besh yoshli go'dakning tojik shoiri Qosim Anvor g'azallarini yod aytishi, maktab yoshida Fariddun Attorning "Mantiq ut-tayr" falsafiy dostonini yodlashi, yetti-sakkiz yoshidan g'azallar bitishi, o'n ikki-o'n uch yoshlarida mamlakat bo'ylab shuhrat taratishi, hikmronlar e'tiborini qozonishi Alisher Navoiyning dunyoga buyuk bo'lib kelganligi kafolatidir. Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

So'nggi yillarda Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, uning o'lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, shoir tug'ilgan qutlug' 9-fevral sanasini har yili adabiyot va ma'rifat bayrami sifatida yuksak darajada nishonlash an'anasi qaror topdi. Ulug' so'z san'atkorining asarlari muntazam nashr etilib, navoiyshunoslik sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar o'tkazilmoqda.

Alisher Navoiy o'zining devoni va masnaviylari, tazkiralari, ilmiy izlanishlari, diniy va axloqiy mavzulardagi o'lmas asarlari bilan zamon va makon chegarasidan o'tib ketgan va nomi butun turk adabiyotiga kirib kelgan ulug' siymodir. U turkiy tilini o'z nomi bilan birlashtirishda va "Navoiy tili va Navoiy uslubi" deb nomlanishiga katta hissa qo'shgan mutafakkirdir. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro majlislarining shakllanishidagi faol o'rni bilan davlat-madaniyat aloqasining naqadar muhim ekanligini ko'rsatgan, o'z davrining ta'mirlash, obodonchilik va qurilish ishlariga ulkan hissa qo'shgan bilan dong taratgan davlat arbobi hamdir. Komil insonga xos sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shoir orzusidagi podshohning adolatli uning uning yaxshilarga muruvvatli, yomonlarga esa qahrliisidir:

Bo'lsa kerak fikr ila shohi zamon,

Yaxshilarga yaxshiyu yomonlarga yomon.

Ko'pgina sharq mutafakkirlari va davlat arboblari singari Alisher Navoiy ham mamlakat obodligi, el-yurt osoyishtaligining sababini ma'naviy barkamol

podshohning odil siyosati deb biladi. Navoiyning fikriga ko'ra el bir bog' bo'lsa, podshoh bog'bondir. Cho'pon o'z galasini och bo'rilar hujumidan ehtiyot qilsa, podshoh xalq tinchligini shunchalar asrashi lozim. Shu vazifa podshohga iloh tomonidan yuklatilgan deb ogohlantiriladi. Shunda ham taxtu toj egasi bo'lish emas, balki xalq va mamlakatga g'amxo'rlik qilishi iloh tomonidan yuklatilganligini ta'kidlaydi. Shoir shohni ulug', pishqir... oqayotgan daryoga, aholisi va yaqinlarini esa daryo atrofidagi anhorlarga o'xshatib, bu haqda shunday deydi: "Daryo suvidan ham shu kabi kayfiyat va xosiyat bo'ladi. U achchiq bo'lsa- bu achchiq uchun bo'lsa-bu uchun bu chuchuk- bu tiniq" Har bir zamon, har bir taraqqiy davr o'zining ulug' siymolarini yaratadi. Alisher Navoiy ham o'z davrining ana shunday buyuk siymolaridan biri hisoblanadi.

Ulug' bobomiz she'r yozishda faqatgina o'zbek tili imkoniyatlari bilan chegaralanib qolmagan, boshqa tillardan ham unumli foydalangan. O'tkir Hoshimov bu borada quyidagilarni qayd etadi: "Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin o'z asarlarida 21197 ta betakror so'z ishlatgan, Shekspir salkam 20 mingta, Servantes mingtaga yaqin. Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta betakror so'z ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo'g'ul va boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorat bilan foydalangan".

Dalillardan ko'rinib turibdiki, Navoiyning so'z zaxirasi nihoyatda ulkan ekan. Hazrat ishlatgan so'z o'yinlari ko'lami ham beqiyosdir. Negaki, Navoiy she'rni shunchaki biror narsani bayon qilish emas, balki mo'jiza ko'rsatish deya hisoblaydi. Ul zot yozadi-ki:

Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,
Bo'lmas edi Tengri kalomida nazm.

Navoiy o'z asarlarida va Xurosonning vaziri a'zami sifatidagi faoliyatida insonni ana shunday tushunishni, qadrlashni, himoya etishni va savob ishlarga da'vat qilishni muqaddas vazifa deb bildi. Insonni tavsiflashda Navoiy bir yoqlama mubolag'aga yo'l qo'ymaydi, u odamning ojiz tomonlari borligini ham tan oladi. Ammo inson o'z fazilatlarini himoya qila va saqlay olsa, uning hayot uchun kurashida fazilatlarini ustun chiqishiga chuqur ishonch izhor etadi:

Bordir inson zotida oncha sharaf, -
Kim, yamon axloqin etsa bartaraf.

Navoiy nafaqat shoir, tarjimon, tilshunos olim, balki davlat arbobi sifatida ham tarixda katta iz qoldirgan. Ana shuning uchun ham uning ko'p ruboiylari, dostonlari xalqni qay yo'sinda baxtli-saodatli qilmoq mumkin, savoliga javob tariqasida yozilgandir. Alisher Navoiy dunyoni tushunib o'tdi. Shu bois, alg'ov-dalg'ov zamonlarda botinin xotirjam yashadi. Zotan, Nozim Hikmat ta'biri bilan aytganda: "tushunmak - buyuk xotirjamlik",- deganidir.

Navoiy yashagan davrdan buyon besh asrdan ko'proq vaqt o'tdi. Movarounnahr tuprog'i ne-ne bosqinlarga, toj-u taxt uchun qonli kurashlarga sahna

bo'ldi. Ammo shoir ijodining qimmatini aslo pasaymadi. Har avlod undan o'zi uchun nimadir topdi. Navoiy asarlari xalqimiz uchun ma'naviy quvvat va yuksalish manbai bo'ldi.

Navoiy butun hayotini turkiy tilning ravnaqi uchun bag'ishladi va bu borada ulkan yutuqlarga erishdi. Uning turkiy tildagi noyob yozuv uslubi o'z davrida nafaqat temuriylar saltanatida, balki Qashqardan tortib to Tabriz va Istanbulgacha juda katta hurmat va ehtiromga ega bo'lgan. Buyuk shoirning asarlari ham jahon miqyosida juda keng tarqalgan. Uning asarlari fors, italyan, nemis, fransuz, hind, turk, ingliz, rus, ozarbayjon, turkman va boshqa tillarga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy bobomizni ijodini o'rganib milliy madaniyatimiz shakllanishiga, ruhiy dunyoyimiz yaxshilanishiga asos bo'ladi. Navoiy asarlari insonni o'yga toldiradi, har bir satrida chuqur bir ma'no mujassam, har bir qahramon juda ham chiroyli tasvirlangan, ko'z oldingizda yaqqol namoyon bo'ladi.

